

ALISHER NAVOIYNING “HAYRAT UL-ABROR” DOSTONIDAGI SHAXS FE'L-ATVORINI IFODALOVCHI SO'ZLAR SEMANTIKASI

Sobirova Shahzoda Faxriddin qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti
shazodasobirova6@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada buyuk mutafakkir va shoir Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” asarida qo‘llangan shaxs fe‘l-atvori va tashqi qiyofasini ifodalovchi so‘zlarning semantik xususiyatlari keng qamrovda tahlil qilinadi. Dostonning badiiy matni asosida insonning ichki ruhiy dunyosi, axloqiy fazilatlarini, xulq-atvori hamda tashqi ko‘rinishini ifodalovchi leksik birliklarning ma‘no qatlamlari, ularning uslubiy va estetik vazifalari ochib beriladi. Tadqiqot davomida Navoiy tilidagi so‘zlarning ko‘p ma‘noliligi, obrazlilik darajasi, kontekstual ma‘no kengayishi hamda ularning tarbiyaviy-axloqiy mazmun yuklashdagi o‘rni alohida yoritiladi. Shuningdek, inson xarakterini ifodalovchi ijobiy va salbiy sifatlar tizimi, ularning badiiy talqini va o‘quvchiga ta’sir kuchi misollar asosida izohlanadi.

Kalit so‘zlar: Alisher Navoiy, Hayrat ul-abror, semantika, leksik birliklar, fe‘l-atvor, tashqi qiyofa, badiiy matn, obrazlilik, axloqiy fazilatlar.

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of the semantic features of words expressing human character and appearance in the work “Hayrat ul-abror” by the great thinker and poet Alisher Navoiy. Based on the literary text of the epic, the study explores the semantic layers of lexical units that describe a person’s inner spiritual world, moral qualities, behavior, and outward appearance, as well as their stylistic and aesthetic functions. In the course of the research, particular attention is paid to the polysemy of Navoi’s language, the degree of figurativeness, contextual expansion of meaning, and the role of these units in conveying moral and educational values. Furthermore, the system of positive and negative character traits, their artistic interpretation, and their impact on the reader are explained through relevant examples.

Keywords: Alisher Navoiy, Hayrat ul-abror, semantics, lexical units, character traits, appearance, literary text, imagery, moral qualities.

KIRISH. “Hayrat ul-abror” — didaktik-falsafiy doston bo‘lib, unda komil inson g‘oyasi markaziy o‘rinni egallaydi. Muallif insonning axloqiy fazilatlarini, ruhiy kechinmalari va tashqi ko‘rinishini tasvirlash orqali o‘quvchini ezgulikka, poklikka va ma‘naviy kamolotga chorlaydi. Asarda qo‘llangan fe‘l-atvor va tashqi qiyofaga oid so‘zlar ana shu g‘oyani yoritishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

TADQIQOD MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI. Tilshunoslar o‘zbek tilidagi xulq-atvorni ifodalovchi fe‘llarning semantik jihatlarini tadqiq etar ekanlar, ularning lug‘aviy ma‘nosi bilan nutq jarayonida yuzaga keladigan kontekstual ma‘nosi o‘rtasidagi bog‘liqlikka alohida e’tibor qaratganlar. A. Madvaliyev va G. Abdurahmonov kabi olimlar leksik tarkibni o‘rganishda semantik maydon nazariyasini qo‘llashgan.

A. Madvaliyevning ta’kidlashicha, xulq-atvor fe‘llari insonning ichki kechinmalari va hissiyotlarining til orqali ifodalanishida o‘ziga xos vosita bo‘lib, ular har bir madaniyatda turlicha ma‘no nozikliklari bilan ajralib turadi.

Xulq-atvor fe'llari O'zbek tilining izohli lug'atida insonning hissiy va xatti-harakat olamini yorituvchi muhim vositalardan biri hisoblanadi. Ularning semantikasi boy bo'lib, turli vaziyatlarda keng qo'llaniladi. Bu fe'llar faqat tilshunoslik nuqtai nazaridan emas, balki madaniyat, psixologiya va jamiyatshunoslik sohalari uchun ham ahamiyatlidir.¹ Asarda insonning ijobiy va salbiy sifatlarini bildiruvchi ko'plab leksik birliklar uchraydi. Jumladan: *Ijobiy fazilatlarni bildiruvchi so'zlar*: Navoiy komil inson timsolini yaratishda “odil”, “saxiy”, “halim”, “sabrli”, “kamtar”, “muruvvatli”, “rahmdil” kabi so'zlardan keng foydalanadi. Bu birliklar qahramonning ichki go'zalligi va ma'naviy pokligini ifodalaydi. Ayniqsa, saxovat va adolat tushunchalari dostonning asosiy axloqiy mezonlari sifatida ko'rsatilib, bunday sifatlar ulug'lanadi.

MUHOKAMA VA TADQIQOT NATIJALARI

Qoni' – qanoatli inson timsoli: *Qoni' esa onchaki maqdur erur, Tengriyu xalq olnida ma'zur erur.*

Bu baytda “qoni'” (qanoat qiluvchi) so'zi ijobiy axloqiy fazilat sifatida talqin qilinadi. Navoiy nazarida qanoatli kishi Alloh va xalq oldida ma'zur, ya'ni hurmat va e'tiborga loyiqdir. Bu yerda qanoat – komil insonning asosiy sifatlaridan biri sifatida ko'rsatiladi.

Chobuk va mavzun – harakat va so'z mukammalligi:

Chobuku mavzun harakoti aning, Uchqali yo'q lek qanoti aning.

“Chobuk” (chaqqon) va “mavzun” (mutanosib, benuqson) so'zlari tashqi harakatning nafisligi va ichki uyg'unlikni ifodalaydi. Qahramonning harakati go'yo qanotsiz ham uchishga qodirdek tasvirlanadi – bu mubolag'a orqali uning mukammalligi kuchaytiriladi.

Ulki bu yanglig' so'zi mavzun edi, Mendin aning himmati afzun edi.

Bu baytda esa “mavzun” so'zi nutqning puxtaligi va fikrning yetukligini bildiradi. Demak, mavzunlik nafaqat jismoniy harakatga, balki so'z va tafakkurga ham tegishlidir.

Tuzluk – to'g'rilik timsoli:

Tuzluk o'lub oxir anga dastgir, Tuzluk ila xalq anga farmonpazir.

“Tuzluk” (to'g'rilik) insonni qo'llovchi, oxir-oqibat najot beruvchi kuch sifatida talqin qilinadi. To'g'rilik tufayli xalq ham unga bo'ysunadi. Bu yerda axloqiy poklik ijtimoiy e'tirof bilan bog'langan.

Naf' rason va naf' jo'y – saxovat va xudbinlik qarama-qarshiligi:

Kim beribon qilmamoq olmoqqa xo'y, Naf' rason bo'lmoqu yo'q naf' jo'y.

Bu baytda “naf' rason” (foйда yetkazuvchi) bilan “naf' jo'y” (faqat naf' izlovchi) o'rtasida tazod yaratilgan. Birinchisi saxovatli, ikkinchisi xudbin shaxsni anglatadi. Navoiy saxovatni ulug'lab, manfaatparastlikni qoralaydi.

Salbiy sifatlarni bildiruvchi so'zlar: Asarda insonni tubanlikka boshlovchi illatlar ham keskin tanqid qilinadi. “Zolim”, “baxil”, “manman”, “hasadgo'y”, “jahldor”, “nodon” kabi so'zlar orqali muallif salbiy xarakterlarni ochib beradi. Bu kabi birliklar nafaqat shaxsning ichki buzilishlarini, balki jamiyatdagi ma'naviy muammolarni ham aks ettiradi.

Fe'l-atvorni ifodalovchi so'zlar ko'pincha mubolag'a, tashbeh va tazod san'atlari yordamida yanada ta'sirchan tus oladi. Masalan, saxiy inson quyoshga, zolim esa zulmatga qiyoslanadi. Bu esa tasvirning obrazlilikini kuchaytiradi. *Shaxsning tashqi ko'rinishini ifodalovchi so'zlar*:

¹ S.Ochilova. O'zbek tili izohli lug'atida xulq-atvor fe'llari va ularning semantikasi.

Dostonda tashqi qiyofa tasviri ham muhim badiiy vosita sifatida namoyon bo'ladi. Tashqi ko'rinish ko'pincha ichki dunyo bilan uyg'unlikda tasvirlanadi.

1. *Ijobiy qiyofa tasviri*: go'zal yuz, nurli chehra, ravshan ko'z, latofatli qomat kabi ifodalar insonning ma'naviy pokligi bilan bog'liq holda beriladi. "Nur", "ziyo", "jamol", "husn" kabi so'zlar tashqi go'zallikni ifodalash bilan birga, ruhiy poklik ramzi sifatida ham qo'llanadi.

2. *Salbiy qiyofa tasviri*: Ba'zi o'rinlarda tashqi ko'rinish orqali salbiy xarakter ochiladi. Qorong'i chehra, badqovoq yuz, dag'al qiyofa kabi tasvirlar insonning ichki buzug'ligi bilan uyg'un holda tasvirlanadi. Bu esa Navoiy ijodida tashqi va ichki olam o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ko'rsatadi.

Sifla – "Sifla" – pastkash inson. Unga "sharorat" (yomonlik) xos ekani ta'kidlanadi. Olov timsoli orqali uning ichki buzug'ligi tasvirlanadi.

Sifla nishonisi sharorat durur, Shu'lag'a bittab' harorat durur.

"Sifla" – pastkash inson. Unga "sharorat" (yomonlik) xos ekani ta'kidlanadi. Olov timsoli orqali uning ichki buzug'ligi tasvirlanadi.

Mudbir – "Mudbir" (baxtsiz) tushunchasi inson taqdiri bilan bog'liq falsafiy mushohadani beradi. Bu yerda shaxsning irodasi va qismat masalasi ko'tariladi.

Bo'lsa kishi mudbir agar baxtiyor, O'ziga bu amrda ne ixtiyor?

Aybjo'y va hosid – "Aybjo'y" – boshqalardan ayb izlovchi kishi. Bunday odam oxir-oqibat aybgo'yga aylanadi.

*Bo'ldi chu el qilg'onig'a aybjo'y, Mumkin emas bo'lmomog'i aybgo'y.**

Ulki xayoli bori fosid durur, Borcha saloh ahlig'a hosid durur.

"Hosid" – hasadgo'y inson. U barcha ezgu kishilarga dushman sifatida ko'rsatiladi.

Bundan tashqari, "Hayrat ul-abror" dostonida "Kajtab" – qing'ir tabiatli; "Qalloshlik" – daydilik, bekorchilik; "Lavand" – bebosh, dangasa; "Durang" – ikkiyuzlamachi kabi fe'l-atvor ifodalovchi so'zlar ko'plab o'rinlarda ishlatilgan. Masalan:

Kibr etibon el bila fe'lin durang, Qullai zulm uzra nechukkim palang.

Bu baytda "durang" kibr bilan bog'lanib, zulm tepasida turgan yirtqichga qiyos qilinadi.

XULOSA. "Hayrat ul-abror"da shaxsning fe'l-atvori va tashqi ko'rinishiga xos so'zlar keng semantik qatlamni tashkil etadi. Ijobiy fazilatlar – qanoat, to'g'rilik, saxovat, mutanosiblik ulug'lanadi; salbiy illatlar – hasad, pastkashlik, ikkiyuzlamachilik, manmanlik keskin tanqid qilinadi.

Navoiy har bir sifatni obrazli vositalar – tashbeh, mubolag'a, tazod orqali yanada ta'sirchan qiladi. Natijada doston tilidagi bunday birliklar nafaqat leksik ma'no, balki chuqur axloqiy-falsafiy mazmun kasb etadi. Bu esa asarda komil inson konsepsiyasining badiiy ifodasini ta'minlaydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Begmatov E. Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. – Toshkent: Fan, 1985. – 199 b.
2. Abdulxayrov M. Navoiy asarlarida so'z va iboralar. – Toshkent: Tafakkur bo'stoni, 2009. – 240 b.
3. Bafoyev B. Navoiy tilida hindcha so'zlar//O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent: 1991. – №4. – B. 38-44.

4. Rustamov A. Navoiyning badiiy mahorati. Toshkent: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1979. – 213 b.
5. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati (arab so'zlari va ular bilan hosilalar). Toshkent: Universitet, 2003. – 599 b.